



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Auditorlik Tekshiruvida Nomoddiy Aktivlarni Tekshirish

Turumova Dildora Abdumannonovna

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasini o'qituvchisi,
dildoraturumova1985@gmail.com

Ahmedova Sarvinoz San'at qizi

Jizzax Politexnika Instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola auditorlik tekshiruvi jarayonida nomoddiy aktivlarni baholash va tekshirishning ahamiyatini, metodologiyasini va amaliyotini o'rganadi. Nomoddiy aktivlar - bu kompaniyaning moliyaviy holatini belgilovchi, lekin jismoniy shaklda mavjud bo'lmagan resurslardir. Ular intellektual mulk, brend nomlari, patentlar va litsenziyalar kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Auditorlik jarayonida bunday aktivlarning to'g'ri baholanishi moliya hisobotlari ishonchliligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, maqolada auditorlik standartlariga mos ravishda nomoddiy aktivlarga oid hisobot berish zarurati ta'kidlanadi. Auditorlar uchun bunday aktivlarni tekshirish jarayoni nafaqat moliyaviy hisobotni shakllantirishda balki investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga ishonch berishda ham muhimdir.

Kalit so'zlar: nomoddiy aktivlar, patentlar, litsenziyalar, «nou-xou», savdo markalari, tovar belgilari, franshizalar, inventarizatsiya, amortizatsiya.

Nomoddiy aktivlar auditining maqsadi buxgalteriya hisoboti «nomoddiy aktivlar» moddasining ishonchlilik darajasi to'g'risida fikr shakllantirish va korxonada qo'llanilayotgan nomoddiy aktivlarni hisobga olish uslubi hamda soliqqa tortish bilan bog'liq muomalalarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilikka muvofiqligini aniqlashdan iborat. Nomoddiy aktivlar hozirgi zamonda barcha davlatlarda biznesning muhim jihati bo'lib kelmoqda. Nomoddiy aktivlar haqidagi mashhur iqtibosni barcha davrlarning eng katta investorlaridan biri Uorren Baffet ta'kidlagan:

"Biznesning qiymati uning kelajakda daromad olish qobiliyati va muvaffaqiyatga olib keladigan nomoddiy aktivlar bilan belgilanadi".

Baffet ko'pincha brend kuchi, mijozlarning sodiqligi va intellektual mulk kabi omillarning kompaniyaning raqobatdosh ustunligining muhim omili sifatida muhimligini ta'kidlaydi - ko'pincha nomoddiy, ammo nihoyatda qimmatli omillar.

Microsoft asoschisi Bill Geyts aytib o'tganidek:

“21-asr kompaniyasining eng qimmatli aktivi uning intellektual mulkidir”.Geyts zamonaviy biznesda g'oyalari, innovatsiyalar va bilimlarning an'anaviy jismoniy aktivlarga nisbatan ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu patentlar, dasturiy ta'minot va intellektual kapital kabi nomoddiy aktivlar texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan kompaniyalarning bugungi iqtisodiyotdagi muvaffaqiyatiga qanday yordam berishini aks ettiradi. Nomoddiy aktivlar bilan yaqindan tanishadigan bo'lsak.

Nomoddiy aktivlar (intangibles assets) — bu jismoniy shakli bo'lmagan, lekin kompaniya uchun iqtisodiy foyda keltiruvchi aktivlar. Ular uzoq muddatli bo'lishi mumkin va ko'pincha kompaniyaning qiymatini oshiradi.

Nomoddiy aktivlarga patentlar, litsenziyalar, «nou-xou», savdo markalari, tovar belgilari, sanoat namunalari, dasturiy ta'minot, gudvill, tashkiliy xarajatlar, franshizalar, mualliflik huquqlari, er va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, xizmat ko'rsatish belgilari va boshqalar kiradi.

Shu o'rinda nomoddiy aktivlarning tekshirish auditi o'tkazish ham o'z o'rnida muhim hisoblanadi.

Nomoddiy Aktivlar Auditining Ketma-ketligi

1. Umumiy jarayonlar

Ichki nazorat tizimi bo'yicha test o'tkazish, buxgalteriya hisobi tizimi bo'yicha test o'tkazish, hisob siyosatining tahlili, ishchi schetlar rejasini tahlil qilish, buxgalteriya balansi va buxgalteriya hisob registrlaridagi ko'rsatkichlarni bir xilligini tekshirish, hujjatli tekshirishda tanlab olish miqdori va tuzilishi aniqlash.

2. Mohiyati Bo'yicha Tekshirish jarayonlar

Inventarizatsiya, shartnomalarni ko'rib chiqish, nomoddiy aktivlarni kirimi va chiqimi hisobini hujjatlashtirilishini to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish, NMA kiritilish kriteriyasiga mosligini tekshirish, NMA baholash va kirimini hisobda qayd etilishini qonunchilikka va hisob siyosatiga mosligini tekshirish, NMA hisobi va amortizatsiya hisoblashning to'g'riligini va hisob siyosatiga mosligini tekshirish, tekshirilayotgan davr muomilalarining to'g'riligini tekshirish, sotib olingan va chiqib ketgan NMA bahosini hisob ma'lumotlari bilan solishtirib tekshirish, hisobotlardagi muhim axborotlarning oshkor qilinishini tekshirish, xato va kamchiliklarni taxminiy ro'yxati, tizimli (sistemali) kamchiliklar to'g'risida ma'lumot, tanlab tekshirish natijalarini tahlili, me'yoriy hujjatlar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar ro'yxati, nomoddiy aktivlarni auditi bo'yicha xulosa.

Nomoddiy Aktivlar Auditining Asosiy Bosqichlari

➤ Mavjudlik Ustidan Nazorat

Mulkiy ob'ektlarni nomoddiy aktivlar qatoriga olib borishning to'g'riligi, mavjudligini va muomalalarni hujjatlashtirishning to'g'riligini tekshirish, nomoddiy aktivlarni baholashning to'g'riligini tekshirish, inventarizatsiya qilish, hisobot ko'rsatkichlarining sintetik va analitik hisob ma'lumotlariga mosligini aniqlash.

➤ Sintetik Hisobni Tekshirish

Nomoddiy aktivlarning kirimi va chiqimiga doir muomalalarni soliqqa tortishning to'g'riligini tekshirish, nomoddiy aktivlar kirimi va chiqimiga doir muomalalarni sintetik hisob registrlarida aks ettirilishi, nomoddiy aktivlar kirmiga olinishi va chiqim qilinishiga doir muomalalarni soliqqa tortish masalalari.

➤ Amortizatsiya Hisoblash

Foydali xizmat muddatini belgilashning asoslanganligi, amortizatsiya hisoblashda qo'llanilgan usullarning qonuniyligi va asoslanganligi, amortizatsiya ajratmalarining hisobda aks ettirilishi.

Nomoddiy Aktivlar Auditining Ma'lumot Manbalari

- Nomoddiy aktivlarni hisobga olishni va ular bilan bog'liq muomalalarni soliqqa tortishni tashkil etish masalalarini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar
- Korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i (farmoyishi)
- Nomoddiy aktivlar sintetik va analitik hisobi bo'yicha korxonada qo'llaniladigan hisob registrlari
- Nomoddiy aktivlarga taalluqli muomalalarni hisobga oladigan dastlabki hujjatlar
- Buxgalteriya hisobotlari

Nomoddiy Aktivlarni Inventarizatsiya Qilish

- Mavjudlikni Aniqlash
- Nomoddiy aktivlarning haqiqatda mavjudligini aniqlash.
- Butunlikni Ta'minlash
- Haqiqiy qoldiqni buxgalterlik hisob ma'lumotlariga solishtirish yo'li bilan ularning butligini ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish.

Nomoddiy Aktivlarni Hisobga Qabul Qilish

Nomoddiy aktiv ob'ektini hisobga qabul qilish kuchga kirgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnomalarni yuridik ekspertizadan o'tkazish uchun auditorlik firmasining yuristi jalb qilinishi mumkin. Auditor shartnomalarni tekshirish bilan bir qatorda nomoddiy aktivlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (qabul qilish dalolatnomasi) va nomoddiy aktivlarni hisobga olish kartochkasi (№1-NMA shakli)ni to'lg'azishni tekshiradi.

Nomoddiy Aktivlarga Amortizatsiya Hisoblash

Nomoddiy aktivlarning qiymati amortizatsiya hisoblash yo'li bilan so'ndiriladi. Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari baholash miqdori bo'lib, taxmin qilinayotgan foydali xizmat qilish davriga asoslanib hisob-kitob qilinadi. Shuning uchun auditor o'rnatilgan foydali xizmat qilish muddatlari va amortizatsiya ajratmalari normalarining mosligini №7 BHMS 46 bandiga muvofiq tekshirib ko'rishi lozim.

Amortizatsiya quyidagi usullar bilan hisoblanadi:

- a) teng maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash
- b) bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiya hisoblash(ishlab chiqarish) usuli
- c) ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli
- d) yillar summasi usuli (komulyativ usul)

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish asosida ta'kidlash zarurki, nomoddiy aktivlar korxonaning muhim faktorlaridan biri hisoblanadi va uning hisobi to'g'ri yuritilish tekshirish auditorlik birmuncha murakkab bosqichlardan iborat bo'lib, muhim o'rin tutadi. Nomoddiy aktivlarni auditorlik tekshiruv moliya hisobotining to'g'riligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri baholangan nomoddiy aktivlar tashkilotning iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshiradi hamda investorlar uchun ishonchli manba bo'ladi. Shuning uchun auditorlarga yuqori malaka darajasiga ega bo'lishlari zarur, chunki bu jarayonda har qanday xato katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arens, A. A., Elder, R. J., & Beasley, M. S. (2017). *Auditing: An Integrated Approach* (15th ed.). Pearson Education.
2. International Federation of Accountants (IFAC). (2018). *International Standards on Auditing (ISA)*. Retrieved from <https://www.ifac.org>
3. Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB). (2021). *Auditing Standards*. Retrieved from <https://pcaobus.org>
4. Lee, T. A., & Dyer, D. J. (2020). The Role of Auditors in Enhancing Corporate Governance: A Study of Compulsory Audits. *Journal of Accounting and Finance*, 18(3), 34-50. <https://doi.org/10.2139/ssrn.3149875>
5. Abdumannonovna, T. D. (2024). LICENSING PROCEDURE OF AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN AND CURRENT RESULTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 35-40.
6. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 221-226.
7. Abdumannonovna, T. D. (2024). NEW UZBEKISTAN AND THE MUTUAL INTERESTS OF THE "BIG FOUR" INTERNATIONAL AUDITING COMPANIES. *Miasto Przyszłości*, 45, 600-605.
8. Abdumannonovna, T. D. (2024). Purpose, Tasks, Necessity of Audit in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 89-92.
9. Abdumannonovna, T. D. (2024). Relationship With Auditing Standards in Controlling the Quality of Auditor's Work. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 998-1003.
10. Abdumannonovna, T. D. (2024). Respublikamizda auditorlarni sertifikatlashtirish va malakasini oshirishdagi natijalarning samarasi. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 682-687.
11. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
12. Abdumannonovna, T. D. (2024). THE AUDITOR'S PROFESSIONAL ETHICS ARE THE BASIS OF THE AUDITOR'S ACTIVITY. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 225-229.
13. Abdumannonovna, T. D. (2024). The Document Presented by the Auditor is "Audit Report and its Contents". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 991-997.
14. Abdumannonovna, T. D. (2024). EXTERNAL AUDITORS AND THEIR LIABILITY TO THIRD PARTIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 71-75.
15. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 136-140.
16. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 6-9.